Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(IMPACT FACTOR)9.573/2025 ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son /2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg'un G'AFUROV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY – islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-07/7225-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:
Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shahzod Islamov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:
Zarifjon Arslonov

Dizayner:
Zarifjon G'ulomov

«**Moturidiylik**» jurnali **O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi**ning 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
E-mail: info@maturidijournal.org
Web-sahifa: maturidijournal.org
Telefon: (+99855) 515-98-98,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MUNDARIJA

ISLOMSHUNOSLIK

Ikhtiyor ABDURAKHMONOV
Allohning kalom sifati haqidagi aqidaviy qarashlar va ularning talqini 5

Jobir ELOV
Imom Buxoriy ta’limotidagi axloqiy tamoyillarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni 9

Yahyobek HAYITALIYEV
Radikal g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish yo‘llari («soxta salafiylik» misolida) 16

Abdullatif ALLOQULOV
Moturidiylikda takvin sifati: ma’nosi va zotiy sifat bilan aloqasi 22

Qudratulloh SIDIQMETOV
Ilk takfirchi firqalarning shakllanishi va ularning xatarlari 27

Botirkhon RUZIYEV
Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati tahlili 32

Abdulaziz YAKHSHILIKOV
Aqoid ilmi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 40

Oishakhon SALIMOVA
Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o‘rni 47

Aydos YAKUPOV
Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi 50

Nasrullo TOKHTAYEV
Moturidiylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari 55

ISLOM HUQUQI

Muhammad Khodiy AKHMEDOV
Mazhablarning ahamiyati: dalillar va ilmiy asoslar 59

DINSHUNOSLIK

Bobomurod RUSTAMOV
O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda diniy sohadagi davlat siyosati 63

Abdullaziz ABDUVAKHIDOV
Zamonaviy ta’limda ma’rifatning o‘rni 67

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIK

Tokhir KHATAMOV
Xorijiy fondlardagi tasavvuf ta’limotiga oid manbalarning yurtimizda tuzilgan reyestrlarda tasnif etilishi 72

Ahmadkhon RASHIDOV
O‘rta asrlar islom olamida qiroat ilmining rivojlanishi va uning mashhur namoyandalari 81

Samariddin AKHMEDOV
Umar Jandiyning «al-Iqlid» asari metodologiyasi 89

Nozima IBRAGIMOVA
Abbosiylar davri elchilik munosabatlarining konseptual qoidalari 95

Khalilulloh SAIDAKBAROV
Ibn Kasirning «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida foydalangan manbalari 102

Zarifjon GULOMOV
«Kitob at-tavhid» tanqidiy nashrlarida matniy tafovutlar va tahrir tamoyillari 107

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-M/15

Ahmadkhon RASHIDOV[a]

[a] *Researcher*
Tashkent Islamic Institute named after Imam Bukhari
47, 18th Dead-end Street, Zarqaynar, Tashkent, 100002, Uzbekistan
E-mail: ahmadxon.rashidov1978@gmail.com

O‘RTA ASRLAR ISLOM OLAMIDA QIROAT ILMINING RIVOJLANISHI VA UNING MASHHUR NAMOYANDALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘rta asrlarda Qur’onni to‘g‘ri o‘qish va uning turlari bo‘yicha (qiroat) paydo bo‘lgan maktablar haqida ma’lumot beriladi. Avvalo Muhammad alayhissalom davridagi Qur’on ta’limi, sahobalar davridagi ta’lim-tarbiya, ulardan keyin vujudga kelgan yo‘nalishlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Maqolada Madina, Makka, Shom, Bag‘dod va Andalus maktablari va ularning vakillari sanab o‘tilgan.*

Shuningdek, maqolada «yetti qiroat», «o‘n qiroat», «o‘n to‘rt qiroat» kabilarning paydo bo‘lish sabablari ochib berilgan. Qiroat ilmining manbalari, mazkur ilm bo‘yicha yozilgan asarlar to‘g‘risida maqolada yangi ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Maqolada Ibn Mujohid va uning «Kitob as-sab’a» asari to‘g‘risida ham ma’lumot berilgan. Mazkur asar musulmon olimlari orasida shuhrat qozongan bo‘lib, «yetti qiroat» tushunchasining paydo bo‘lishida asosiy rol o‘ynagan.

Kalit so‘zlar: *Qur’on, qori (Qur’on o‘quvchi), roviy (rivoyat qiluvchi), qiroat (to‘g‘ri o‘qish), yetti qiroat, o‘n qiroat, o‘n to‘rt qiroat, Madina, Makka, Kufa, Andalus.*

THE DEVELOPMENT OF QUR’ANIC RECITATION SCIENCE IN THE MEDIEVAL ISLAMIC WORLD AND ITS RENOWNED SCHOLARS

Abstract. *This article provides information about the correct reading of the Koran and its types (qiraat) schools that arose in the Middle Ages. First of all, we will talk about Quranic education during the time of Muhammad, education during the time of the Companions, and the trends that emerged after them. The article lists the schools of Medina, Mecca, Sham, Baghdad and Andalusia and their representatives.*

The article also reveals the reasons for the appearance of «seven readings», «ten readings», «fourteen readings». The article presents new information about the origins of the science of recitation and the works written on this science.

The article also provides information about Ibn Mujahid and his work «Kitab al-Saba». This work became famous among Muslim scholars and played a key role in the emergence of the concept of the «seven readings».

Keywords: *Qur’an, Qari (Reader of the Qur’an), Ravi (Narrator), Qiraat (Correct Recitation), Seven Readings, Ten Readings, Fourteen Readings, Medina, Mecca, Kufa, Andalusia.*

Qur’oni karim Payg‘ambar (alayhissalom)ga nozil qilingan paytdan boshlab qiroat bilan tilovat qilina, o‘rgatila va namozlarda o‘qila boshladi. Makka davrida Abu Abdulloh Arqam ibn Abul Arqam Maxzumiy (vaf. 675) degan sahobaning «Dorul Arqam» deb atalgan hovlisi 40 nafarcha sahobani yetishtirib bergan, Qur’on o‘rgatiladigan maktab edi. Madinaga qilingan hijrat bilan esa islom ta’limoti, xususan, Qur’on ta’limi Ahli Suffa maktabida tizimlashtirila boshladi va u ta’lim markaziga aylandi. Qur’on yodlashga va qiroatlarni o‘rganishga qiziqqan odamlarga Masjidi nabaviyning suffasida saboq berdilar va ular boshqalarga Qur’on yozish va o‘qishni o‘rgatdilar. Ubayda ibn Somit (vaf. 654-y.) kabi o‘qituvchilar ham tayinlangan va kerak bo‘lganda, ularni islom dinini targ‘ib qilish uchun turli viloyatlarga jo‘natilgan[1]. Suffa ahlining umumiy soni jami taxminan 400 nafar sahobalardan iborat edi[2].

Payg‘ambar (alayhissalom) Qur’on o‘rgatish joyi sifatida foydalangan Suffa ta’lim uchun yetarli bo‘lmagani uchun Madinadagi ba’zi uylarda «Dorul g‘izo» deb nomlangan o‘quv markazlari ochilgan. Shu nuqtai nazardan, Maxrama ibn Navfalning (vaf. 54/675) uyini to‘liq yoki bir qismi Qur’on o‘rgatish uchun ajratilgan[3]. Bu uy masjiddan tashqari diniy ta’limning birinchi namunasi deyish mumkin[4].

Qur’on qiroatining «yetti harf»da o‘qilishiga ruxsat berilishi Makkada yuz bergan degan rivoyatlar bor bo‘lsa-da, lekin hijratdan keyin bir necha yildan so‘ng Madinada sodir bo‘lgan, deyish haqiqatga yaqinroq[5]. O‘sha davrda qizg‘in olib borilgan Qur’on ta’limiga «yetti harf»li ruxsat berilishi bilan qiroatlar yanada ommalashdi. Bu katta ommaning qiroat bilan uchrashishiga imkon berdi. Ba’zi sahobalar Qur’onning bir qiroatini/harfini o‘rgangan bo‘lsalar, boshqalari boshqa qiroatni o‘rganishdi. Turli xil qiroat o‘rgangan sahobalar bir-birlarining qiroatlarini vaqti-vaqti bilan tinglash imkoniga ega bo‘lishdi.

Qur’on qiroatining «yetti harf»da o‘qilishiga ruxsat berilishi natijasida ba’zi tushunmovchiliklar paydo bo‘ldi. Bunday nizolar Payg‘ambar (alayhissalom) huzurlarida hal qilinayotgan edi. Bu qiroatlar turi va usullari bo‘yicha ilk tortishuvlar va muhokamalar, deyish mumkin[6].

Turli mintaqalarda turli qiroatlarni o‘qish muammosi dastlabki ikki xalifa davrida yaqqol ko‘rinmagan bo‘lsa-da, lekin Hazrati Usmon davriga kelib «yetti harf» borasida muammo paydo bo‘ldi. Ayniqsa, Shom va Iroq o‘lkalari, Ozarbayjon va Armaniston fathidan keyin musulmonlar orasida Qur’on qiroatida turli xil o‘qishlar ko‘rinib qoldi. Shuning uchun, 645-yili ilgari turli yozuv materiallari ishlatilgan yozma Qur’on oyatlari va suralar to‘planib, ikki muqova orasiga jamlangan[7]. «Ta’rixul Mus’hafish sharif» kitobida aytilishicha, Hazrati Usmonning Mus’haf tartib berishi va jamlashining sababi Abu Bakr (roziyallohu anhu) davrida mus’haf holiga keltirilgan Qur’ondan nusxa ko‘chirib qo‘yaverish emas edi, balki asosiy sabab mutavotir silsila bilan kelayotgan qiroatlarni jamlash maqsadi bo‘lgan[8]. Bu Usmon Mus’hafi umumiy eng to‘g‘ri e’tirofga ko‘ra, olti nusxada Basra, Kufa, Shom, Makka, Madina ahli uchun va maxsus «Mus’haful Imom» degan nusxalar ko‘chirilgan[9].

Mazkur Usmon Mus’hafida turli xil qiroatlarni o‘z ichiga olish uchun unlilar va tinish belgilari ataylab qo‘yilmaydi. Tuzilgan har bir mus’haf bilan bir Qur’on muallimi ham yuborilgan, ulardan biri Zayd ibn Sobit Madinaga, Abdulloh ibn So’ib (vaf. 689-90-y.) Makkaga, Omir ibn Abdulqays (vaf. 675-y.) Basraga, Abu Abdurrahmon Sulamiy (vaf. 692-y.) Kufaga, Mug‘iyra ibn Abu Shihob (vaf. 710-y.) Damashqqa yo‘l oldi.

Nusxa ko‘chirish ham asl nusxani saqlab qolish, ham ta’lim hayotida faol rol o‘ynaydi. Ko‘chirilgan Mus’haflar davrning muhim markazlariga yuborilgan. Har bir Qur’on o‘rganuvchi ana shu mus’haflarga ko‘ra o‘qigan va yuborilgan mus’haflar yordamida qiroat birligiga erishilgan. U yerdagi tegishli maktabni tizimlashtirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Sahih

[1] Bu haqidagi hadis «Musnadi Ahmad»da 22766-raqami bilan keltirilgan. Qarang: Ahmad ibn Hanbal. Musnad al-Imom Ahmad ibn Hanbal. 37-juz. – Bayrut: «Muassasa ar-Risola», 2001. – B. 426.

[2] Solih Ahmad ash-Shomiy. Ahl us-Suffa ba’idan ‘ani-l-vahmi va-l-xayol. – Damashq: «Dor al-Qalam», 1991. – B. 46.

[3] Abu Nuaym al-Isfahoniy. Hilyat al-avliyo va tabaqot al-asfiyo. 2-jild. – Bayrut: «Dor al-kutub al-ilmiya», 1988. – B. 4.

[4] Abdulsamet Şen. Hz. Peygamber’in Kur’an öğretme metodu. Yüksek lisans tezi. – Erzurum (*Türkiye*): «Atatürk Üniversitesi», 2014. – B. 49.

[5] Bu ikki qarash haqida qarang: Muqaddamot fi ilm al-qiraot / Majmua min al-muallifin. – Ammon: «Dor Ammor», 2001. – B. 52-53.

[6] Sha’bon Muhammad Ismoil. al-Ahruf as-Sab’atu va-l-qiroat va ma yusaru havlaha min shubhatin. – Makka: «Saqaf al-adabiy», 2001. – B. 11-12; Manno’ al-Qatton. Mabohis fi ulum al-Qur’on. – Qohira: «Maktaba Vahba», 1980. – B. 154-155.

[7] Toshkentdagi Hazrati Usmon Mushafi tarixi / Tuzuvchilar: A.Usmonov, M.G‘ulomov. – Toshkent: «Movarounnahr», 2016. – B. 24.

[8] Abdulfattoh al-qozi. Ta’rix al-Mushaf ash-sharif. – Qohira: «Maktaba al-Jandiy», 1951. – B. 27-28.

[9] Abdulfattoh al-qozi. Ta’rix al-Mushaf ash-sharif. – Qohira: «Maktaba al-Jandiy», 1951. – B. 28.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

qiroat asosida hududlarda qiroat maktablari tuzilib, u yerga muallim qorilar yuborilgan. Ular Hijoz, Iroq va Damashqda joylashgan maktablar edi.

Iroq mintaqasida Basra va Kufa maktablari, Shomdagi Damashq maktabi, Hijozda Makka va Madina maktablarini o‘z ichiga olgan jami beshta shaharda tobe’in va tab’a tobe’inlardan iborat qiroat maktablari tashkil topdi. Basra va Kufa imomlaridan tashqari Iroq hududidagi Mosul, Vosit va Bag‘dod shaharlarida ham qiroat olimlari bor edi. Bundan tashqari, Misr, Xuroson, Mag‘rib, Eron va hijriy to‘rtinchi asr oxirlariga kelib, Qur’onga katta xizmatlar ko‘rsatgan Andalus qiroat maktabi paydo bo‘ldi[10].

Markazlardagi qiroat olimlaridan talabalar mad, qasr, imola, taxfif, idg‘om kabi talaffuz xususiyatlari haqida turli xil o‘qishlarni o‘rgandilar va o‘z mahoratini rivojlantirdilar. Ular arab tilini yaxshi biladigan, arab tilining shevalarini va qiroat orasidagi farqni biladigan kishilar bo‘lsalar ham Qur’on o‘qishda lahn qilish darajasida xato qiladilar. Ularning ba’zilari hofiz bo‘lsa ham, tilning nozik jihatlaridan bexabar edi. Ana shu kabi oyatlarda xato qilish holatlari yuzaga keldi. Ibn Mujohid (vaf. 936-y) shunday bir muhitda odamlarning qiroatlarga bo‘lgan chalkash munosabatlariga chek qo‘yish, noto‘g‘ri qiroatlarga barham berish maqsadida o‘zining qiroatlarga bag‘ishlangan 20 ta asari, xususan, «Kitobus Sab’a» nomi bilan mashhur asarini yozish bilan qiroat ilmi tarixida yangi sahifa ochdi[11].

Darhaqiqat, Ibn Mujohiddan oldin ham qiroatga oid ayrim asarlar yaratilgan edi. Jumladan, Ibn Nadiym «Fehrist» kitobida Ibn Ya’mar (708-y.), Abu Ubayd Qosim ibn Sallom (vaf. 838-y.), Xalaf ibn Hishom (vaf. 844-y.), Ibn Sa’don (vaf. 846-y.), Abu Hotim Seyistoniy (vaf. 869-y) kabi olimlar tomonidan tuzilgan o‘nlab asarlarni zikr qilgan[12].

Ibn Mujohid asaridan keyin qiroat darslari asosan shu «yetti qiroat» doirasida olib borilgan. Ibn Mujohid har bir yetti qiroat olimlarining ikkitadan roviysi borligini tasdiqladi:

Qiroat imomi: Nofe’ al-Madaniy (vaf. 199-y.)
Birinchi roviy: Qolun (vaf. 220-y.)
Ikkinchi roviy: Varsh (vaf. 197-y.)
Qiroat imomi: Ibn Kasir al-Makkiy (vaf. 120-y)
Birinchi roviy: Al-Bazziy (vaf. 250-y.)
Ikkinchi roviy: Qunbul (vaf. 291-y.)
Qiroat imomi: Abu Amr al-Basriy (vaf. 154-y.)
Birinchi roviy: Ad-Duriy (vaf. 246-y.)
Ikkinchi roviy: As-Susiy (vaf. 261-y)
Qiroat imomi: Ibn Omir ash-Shomiy (vaf. 118-y.)
Birinchi roviy: Hishom (vaf. 245-y.)
Ikkinchi roviy: Ibn Zakvon (vaf. 242-y.)
Qiroat imomi: Osim al-Kufiy (vaf. 127-y.)
Birinchi roviy: Sho‘ba (vaf. 192-y.)
Ikkinchi roviy: Hafs (vaf. 180-y.)
Qiroat imomi: Hamza al-Kufiy (vaf. 154-y.)
Birinchi roviy: Xalaf (vaf. 229-y.)
Ikkinchi roviy: Xallod (vaf. 220-y.)
Qiroat imomi: Al-Kisoiy (vaf. 189-y.)
Birinchi roviy: Abu-l-Horis Lays (vaf. 240-y.)
Ikkinchi roviy: Ad-Duriy (vaf. 246-y.)

Qiroatlarni cheklash va tasniflash davrlarida «yetti qiroat» bilan birga «sakkiz qiroat» (القراآت الثمان) degan atama ham bir muncha vaqt vujudga keldi-yu, ilmda muqim o‘rnashib qolmadi. Bunga Ibn G‘albunning (vaf. 1009-y.) «Tazkira fil qiroatis samon», Foris Himsiynig (vaf. 1011-y.) «Mansha’ fil qiroatis samon», Abu Ma’shar Qatton Tabariyning (vaf. 1085-y) «Talxis fil qiroatis samon», Ahmad ibn Muhrizning (vaf. 1122-y.) «Mufid fil qiroatis samon», Ibn Abu Maryamning (vaf. 1170-y.) «Muzih fil qiroatis samon» nomli asarlarini misol keltirish mumkin. Lekin qisqa vaqtdan so‘ng «Kitobus Sab’a»ga kiritilmagan uchta qiroat imomlari qo‘shildi. Shu tariqa «o‘n qiroat» atamasi ilmda o‘z o‘rnini egalladi:

Qiroat imomlari: Abu Ja’far al-Madaniy (vaf. 130-y)
Birinchi roviy: Iso ibn Vardon (vaf. 160-y.)
Ikkinchi roviy: Sulaymon ibn Jammoz (vaf. 170-y.)
Qiroat imomlari: Ya’qub al-Hazramiy (vaf. 205-y.)
Birinchi roviy: Ruvays (vaf. 238-y.)
Ikkinchi roviy: Ravh ibn Abdulmo‘min (vaf. 235-y.)
Qiroat imomlari: Xalaf al-Bazzor (vaf. 229-y.)
Birinchi roviy: Is’hoq al-Varroq (vaf. 286-y.)
Ikkinchi roviy: Idris al-Haddod (292-y.)

Mazkur «o‘n qiroat» sahih qiroatlar jumlasidan bo‘lib, mutavotir va mashhur darajada edi. Ushbu mashhur deyiladigan qo‘shimcha uchta qiroatni ham Ibn Jazariy mutavotir deb hisoblagan va Ibn Mujohidning «yetti qiroat» deb cheklab qo‘yganini tanqid qilgan[13]. Mana shu «o‘n qiroat»dan keyin

[10] Recep Koyuncu, Süleyman Kiliç. İbnü’l-Cezerî Öncesi Kıraat Ekollerine Genel Bakış // Kilitbahir. – № 23 (Eylül / September 2023). – Çanakkale (*Türkiye*): «Onsekiz Mart Üniversitesi», 2023. – S. 194.

[11] Ibn Mujohid va uning asarlari haqida qarang: Ahmad ibn Sa’d al-Mutayriy. Kitob as-Sab’a li-Ibn Mujohid arzan va dirosatan. – Riyoz: «Kursiy al-Qur’on al-karim va ulumihi», 2015. – B. 119-130.

[12] Ibn an-Nadim. Al-Fehrist / Tahqiq: Rizo Tajddud. – Tehron: «Asotir», 2003. – B. 31-34.

[13] Ibn al-Jazariy. An-Nashr fi qiroat al-’ashr. 1-jild / Tahqiq: Ali

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

olimlar yana to‘rt qiroatni «shozz» deya e’tirof qilib, ko‘rib chiqa boshladi. Ular asosan uch nafar roviysi bilan zikr etiladi. Shu bilan olimlar ko‘rib chiqadigan qiroatlar soni «o‘n to‘rt qiroat» bo‘ldi:

Qiroat imomlari: Ibn Muhaysin (vaf. 123-y.)
Birinchi roviy: Shibl ibn Abbod (vaf. 160-y.)
Ikkinchi roviy: Bazziy (vaf. 250-y.)
Uchinchi roviy: Ibn Shanabuz (vaf. 288-y.)
Qiroat imomlari: Yahyo Yazidiy (vaf. 202-y.)
Birinchi roviy: Hafs Duriy (vaf. 246-y.)
Ikkinchi roviy: Sulaymon Hakam (vaf. 235-y.)
Uchinchi roviy: Ahmad ibn Faraj (vaf. 303-y.)
Qiroat imomlari: Hasan Basriy (vaf. 110-y.)
Birinchi roviy: Iso Saqafiy (vaf. 149-y.)
Ikkinchi roviy: Shujo’ Balxiy (vaf. 190-y.)
Uchinchi roviy: Hafs Duriy (vaf. 246-y)
Qiroat imomlari: Sulaymon A’mash (vaf. 148-y.)
Birinchi roviy: Ibn Qudoma (vaf. 161-y.)
Ikkinchi roviy: Shanabuziy (vaf. 288-y.)
Uchinchi roviy: Mutavvi’iy (vaf. 271-y.)

Ibn Mujohid asarida bu yerda zikr qilingan qiroat imomlarining tartibi boshqacha bo‘lishi mumkin, lekin ular bir ovozdan qabul qilinganini aytish o‘rinli[14]. Ibn Mihron Naysoburiyning (vaf. 992-y.) «G‘oya fil qiroatil ’ashr» asari yozilgan bo‘lsa-da, shunga o‘xshash asarlar Ibn Jazariyning «Annashr» nomli asaridan keyin keng tarqaldi. Yana o‘sha davrlarda sakkiz qiroat, ikkita qiroat va mintaqaviy qiroatdan iborat asarlar yozilgan bo‘lsa-da, «Kitobus Sab’a» o‘zining maqbulligini saqlab qoldi.

Birinchi davrdan boshlab Qur’on va qiroat maktablari barcha islom mintaqalariga tarqaldi Ularning sa’y-harakatlariga qarab, qiroat maktablari dastlab Madina, Makka, Basra, Kufa va Damashq shaharlarida paydo bo‘lgan. Beshta shahardan tashqari, Andalus va Misr maktablari ham ular qatoriga kiritiladi.

Qur’oni karim ilk nozil bo‘lgan, vahiy uchrashgan birinchi shahar Makka bo‘lsa, Qisqa vaqt ichida butun arab geografiyasiga hukmronlik qilgan Hijoz mintaqasining ikkinchi muhim shahri, shu bilan bir qatorda qiroat ilmining ikkita muhim maktabi hamdir.

Madinada Imom Shotibiygacha yetib kelgan va ismlari ularga nisbat berilgan ikkita qiroat bor. Bu imomlarning birinchisi Nofi’ ibn Abdurahmon ibn Abu Nuaym Madaniy (vaf. 785-y.) bo‘lsa, ikkinchisi «qiroati ashara»ga kiruvchi sakkizinchi imom Abu Ja’far Yazid ibn Qa’qo’ (vaf. 747-748-y.) hisoblanadi. Madinada qiroatlar ta’limi keng tarqalgan davrda Madina qozisi Shayba ibn Nassoh (vaf. 147-y.) nomi ham yetakchilik qilgan[15]. U ham qiroat imomlaridan bo‘lishiga qaramasdan, Shaybaning nomi qiroat rivoyatlari orasida – yetti, o‘n va o‘n to‘rt qiroat tizimiga kiritilmagan[16]. Qiroatlar muhokama qilingan asarlarga kiritilmagani uchun uning qiroati haqida aniq ma’lumot yo‘q.

Bu maktabning eng muhim vakillari Abu Ja’far va Nofi’dir. Bu imomlarning o‘nlab shogirdlari va har biridan ikki roviy bor. Madina qiroat maktabining muhim shogirdlari Qolun laqabi bilan mashhur Abu Muso Iso ibn Mino ibn Vardon (vaf. 835-y.) va Varsh laqabli Abu Usmon ibn Abdulloh Qibtiy (vaf. 812-y.) hisoblanadi. Madina qiroat imomi hamda Nofi’ning ustozi, Abu Ja’far qiroatining ikki roviysi Sulaymon ibn Jammoz (vaf. 786-y.) va Iso ibn Vardon Madaniy (vaf. 777-y.) bo‘ladi[17].

Har bir qiroat imomining ikki nafardan roviysi bo‘lsa, har bir roviyning ikki nafardan tariqi, har bir tariqning yana ikkitadan tariqi bor. Har bir tariq bittadan qiroat bilimdoni va imomi bo‘lgan qori va muqriyning nomini aks ettiradi. Shunday qilib, Nofi’ning Qolun degan roviysining 83 ta tariqi, ikkinchi roviysi Varshning esa 61 ta tariqi mavjud. Demak, Imom Nofi’ning qiroati 144 tariq – yo‘l orqali tarqalgani ma’lum bo‘ladi[18].

Madina qiroat maktabining boshqa bir tamsilchisi, yuqorida zikr qilingan Abu Ja’far bo‘lib, uning ilk roviysi Iso ibn Vardon orqali 40 tariq, ikkinchi roviysi Sulaymon ibn Jammoz orqali esa 12 ta tariq tarqalgan. Demak, Abu Ja’farning qiroati 52 tariq – yo‘l orqali tarqalgani ma’lum bo‘ladi[19].

Makkada ikki qiroat bo‘lib, ularning tilovati Imom Shotibiygacha yetib kelgan va nomlari mazkur ikki qiroatga nisbat berilgan. Bu imomlar «qiroati sab’a»ning imomi Abu Ma’bad Abdulloh ibn Kasir

Muhammad az-Zabbo’. – Bayrut: «Dor al-kutub al-ilmiya», 2000. – B. 36-45.

[14] Ahmad Muhammad al-Quzot. Ibn Mujohid at-Tamimiy va-l-manhaj at-ta’limiy li-l-qiroat al-qur’oniya // Volume 43, Shari’a and Law Sciences, Supplement 1, 2016. – Urdun: «The University of Jordan», 2016. – B. 587.

[15] Xayriddin az-Zirikliy. Al-A’lom. – J. 3. – Bayrut: «Dor al-ilm», 2002. – B. 181.

[16] Ibn Mujohid. Kitob as-Sab’a fi-l-qiroat / Tahqiq: Shavqiy Zayf. – Qohira: «Dor al-Maorif», 1972. – B. 58-59.

[17] Mahmud al-Husariy. Ahsan ul-asar fi ta’rix al-qurro al-arba’ata ashar. – Dubay: «Shirat ash-Shamarli», 1965. – B. 7-13, 66-70; Sobir Hasan. An-Nujum az-zohira fi tarojim al-qurro al-arba’at al-ashara va ruvotuhum va turuquhum. – Riyoz: «Dor olam al-kutub», 1998. – B. 4.

[18] Recep Koyuncu, Süleyman Kiliç. İbnü’l-Cezerî Öncesi Kıraat Ekollerine Genel Bakış // Kilitbahir. – № 23 (Eylül / September 2023). – Çanakkale (*Türkiye*): «Onsekiz Mart Üniversitesi», 2023. – S. 197.

[19] Recep Koyuncu, Süleyman Kiliç. İbnü’l-Cezerî Öncesi Kıraat Ekollerine Genel Bakış // Kilitbahir. – № 23 (Eylül / September 2023). – Çanakkale (*Türkiye*): «Onsekiz Mart Üniversitesi», 2023. – S. 198.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ibn Amr Doriy (vaf. 738-y.) bo‘lsa, ikkinchisi, shoz qiroatlar doirasida «ashara»ga qo‘shilgan to‘rtta qiroatdan birining egasi Abu Hafs Umar ibn Abdurahmon ibn Muhaysin (vaf. 741-y.) hisoblanadi[20].

Imom Ibn Kasirning birinchi roviysi Bazziyning izdoshlari va ularning izdoshlarining jami 41 ta tariq – qiroat yo‘li, ikkinchi rivoyatchisi Qunbulning izdoshlari orqali kelgan jami 32 ta tariq – qiroat yo‘li mavjud. Demak, Imom Ibn Kasir qiroatini rivoyat qilgan maktablarning umumiy soni 73 tadir[21].

Makkalik qiroat imomlaridan biri Ibn Muhaysin arab tilining rivojlanishiga hissa qo‘shgan, qiroat sohasidagi malakasining yuqori bo‘lishi va Makkada Ibn Kasir davrida qori sifatida shuhrat qozonganiga, hadis sohasida «Sahihi Muslim», «Sunani Termiziy» va «Sunani Nasoiy»da ishonchli roviy sifatida rivoyati kiritilgan bo‘lishiga qaramay, tilovatlarining ayrim joylari «Usmon mus’hafi»ga to‘liq mos kelmagani boisidan yetti, sakkiz va o‘n qiroat haqida yozilgan ko‘pgina asarlarda qiroati afzal ko‘rilmagan va shoz qiroatlar jumlasidan hisoblanadi[22].

Hijoz mintaqasidagi Madina va Makka maktablarining qiroat olimlari bu maktablar rivojida muhim xizmatlar ko‘rsatdilar. Ushbu mintaqada nomi berilgan imomlar son-sanoqsiz shogirdlar yetishtirdilar va shu shogirdlar orqali bu maktabning qiroati avlodlarga o‘tib kelgan. Keyingi yillarda bu sohadagi nufuzli olimlar qiroat haqida bir qancha qimmatbaho asarlar yaratdilar. Madina va Makka qiroat maktablari ulamolarining qiroat ilmi bo‘yicha yozgan asarlaridan ba’zilari: Qolunning «Risola fil qiroat li Qolun», Bazziyning «Qiroatu Ibn Kasir», Voqidiyning «Kitob al-qiroat», Muhammad ibn Is’hoqning «Kitob an rivoyat al-Bazzi va Qunbul», Ibn Abbodning «Kitob al-vaqf va-l-ibtido», Abu Ma’shar Tabariyning «Talxis fi-l-qiroat as-saman», «Jomi’ fi-l-qiroat al-ashr» va «Kitob riyoz fi sharh al-Qiroat ash-shozza» nomli asarlari, shuningdek, Ibn Abu Mushayrihning «al-Mufid fi-l-qiroat as-saman» nomli asari misol tariqasida keltirilishi mumkin.

Iroq zaminiga islom fathidan keyin sahobalar o‘z dinlarini musulmonlarga o‘rgatish maqsadida kelishgan. Iroqning Basra va Kufa shaharlarida qiroatning ilk ustozlari-sahobalar tomonidan birinchi urug‘lar qo‘yilgan, vaqt o‘tishi bilan esa maktablar tizimlashtirildi. Keyinchalik uchinchi shahar sifatida tashkil etilgan Bag‘dod ilm-fan markazlaridan biri bo‘ldi. Iroqdagi ikkita muhim maktab Basra va Kufa tarix davomida qiroat ilmi borasidagi o‘z mavqeini saqlab qoldi. Bag‘dodlik qiroat ulamolari esa bu ikki mazhab tizimidan foydalanadilar. Keyingi davrlarga o‘tgan muhim asarlar yozib, tarixda o‘z o‘rnini egalladilar. Qiroat olimlari Iroqning yana ikki muhim shahri Vosit va Mosulda ham tayyorlandi. Bag‘doddagi kabi bu va boshqa shaharlarda o‘sganlar ana shu Basra yoki Kufa maktabiga ergashdilar.

Basra qiroatlari bugungi kungacha saqlanib qolgan va ismlari zikr qilingan to‘rtta qiroat imomlariga ega. Bular «qiroati sab’a»da Abu Amr ibn Alo (vaf. 771-y.), «qiroati ashara»da Ya’qub Hazramiy (vaf. 821-y.), «qiroati arba’ata ashara»da Hasan Basriy (vaf. 728-y.) va Yazidiy (vaf. 817-y.) hisoblanadi.

Imom Abu Amrning birinchi roviysi Duriy (vaf. 862-y.) bo‘lib, uning shogirdlari va izdoshlari orqali jami 126 ta tariq yetib kelgan. Ikkinchi roviysi Susiy (vaf. 874-y.) orqali esa 18 ta tariq mavjud. Demak, Abu Amrning qiroat tariqlari jami 154 tani tashkil qiladi. «O‘n qiroat» tarkibiga kiradigan Ya’qub Hazramiyning ham Ruvays va Ravh nomli ikki roviysi bor bo‘lib, ulardan tarqalgan tariqlarning soni 85 tani tashkil qilgan[23].

Qiroatlari Imom Shotibiygacha yetib kelgan va ismlari zikr qilingan Kufa maktabida ham to‘rtta qiroat imomlari mavjud. Bular Osim ibn Abun Najud (vaf. 745-y.), Hamza ibn Habib (vaf. 773-y.), Kisoiy (vaf. 805-y.) va Hamzaning birinchi roviysi va o‘ninchi qiroat imomi Xalaf ibn Hishom (vaf. 844-y.) hisoblanadi. Shuningdek, qiroati shoz turkumida muhokama qilinadigan A’mash (vaf. 765-y.) ham Kufadagi nufuzli qiroat imomlaridan biridir.

Kufa sahobalar va tobe’inlar davrida islomiy ilm-fanning eng asosiy markazlaridan biri edi. Bu o‘lkaga qori va olim sahobalar va tobe’inlar tashrif buyurgan. Usmon Mus’hafining bir nusxasi shu yerga yuborilgan. Bu shaharda keyingi davrlarda mazkur allomalarning son-sanoqsiz shogirdlari orasidan olimlar yetishib chiqdi. Imom A’zam Abu Hanifadek mujtahid imomlarni yetishtirib bergan mazkur shaharda qiroat ilmi bo‘yicha odamlar besh kishiga murojaat qilib,

[20] Mahmud al-Husariy. Ahsan ul-asar fi ta’rix al-qurro al-arba’ata ashar. – Dubay: «Shirat ash-Shamarli», 1965. – B. 15 va 81; Sobir Hasan. An-Nujum az-zohira fi tarojim al-qurro al-arba’at al-ashara va ruvotuhum va turuquhum. – Riyoz: «Dor olam al-kutub», 1998. – B. 9; 78.

[21] Recep Koyuncu, Süleyman Kiliç. İbnü’l-Cezerî Öncesi Kıraat Ekollerine Genel Bakış // Kilitbahir. – № 23 (Eylül / September 2023). – Çanakkale (*Türkiye*): «Onsekiz Mart Üniversitesi», 2023. – S. 200.

[22] Xayriddin az-Zirikliy. Al-A’lom. – J. 6. – Bayrut: «Dor al-ilm», 2002. – B. 189.

[23] Recep Koyuncu, Süleyman Kiliç. İbnü’l-Cezerî Öncesi Kıraat Ekollerine Genel Bakış // Kilitbahir. – № 23 (Eylül / September 2023). – Çanakkale (*Türkiye*): «Onsekiz Mart Üniversitesi», 2023. – S. 203-204.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ularning qiroatini qabul qilgan, o‘sha asosida tilovat qilgan va qiroat nomi ularga nisbat berilgan.

Qiroat ilmida Kufada mashhur bo‘lganlar Yahyo ibn Vassob (vaf. 721-y.), Osim ibn Abun Najud, Sulaymon ibn Mihron A’mash, Hamza ibn Habib va Imom Kisoiy kabilardir. Yahyo ibn Vassob Asadiy tobe’in, ishonchli hadis roviysi va qiroat imomlaridan biri, qiroatlari Alqama orqali Abdulloh ibn Mas’udga, Abu Abdurahmon Sulamiy orqali Hazrati Aliga ulangan bo‘lishiga qaramasdan, qiroati keyingi avlodlarga yetib kelmadi[24]. Sulaymon A’mash qiroati «o‘n to‘rt» tizimidagi shoz qiroatlar doirasida baholandi. Qolgan uchta imomning qiroatlari yetti va o‘n tizimida yozilgan qiroat kitoblarida saqlanib qolgan. Bu maktabning eng muhim namoyandasi Osim, Hamza, Kisoy va Hamzaning roviysi, «ashara»ning imomlaridan biri Xalafdir.

Imom Osimning roviylaridan biri Abu Bakr Shu’ba (vaf. 809-y.) bo‘lib, uning shogirdlari va izdoshlari orqali qiroat tariqlari soni 76 taga yetgan. Mazkur Abu Bakr ibn Ayyosh ibn Solim Asadiy Kufiy Imom Osimning katta shogirdlaridan bo‘lib, Qur’oni karimni uning oldida uch marta o‘tkazib olgan. Umrining oxirida yig‘layotgan singlisiga dalda berish uchun o‘zining o‘n sakkiz ming marta Qur’onni xatm qilganini aytib, uni tinchlantirgani rivoyat qilinadi[25]. Ikkinchi roviysi Hafs ibn Sulaymon (vaf. 796-y.) orqali tariqlar soni 52 ta bo‘lgan. Demak, Imom Osimning tariqlari soni jami 128 ta qiroat imomi nomi bilan yetib kelgan[26]. Abu Umar Hafs ibn Sulaymon ibn Mug‘iyra ibn Abu Dovud Bazzoz Asadiy Kufiy Imom Osimning asrandi o‘g‘li bo‘lib, uning qo‘lida tarbiya topgan va undan qiroat ilmini o‘rgangan. Shuning uchun ham Hafs ustozining ilmini yaxshi o‘rgangan shogirdlaridan hisoblanadi[27].

Imom Hamza roviylari Xalaf ibn Hishom (vaf. 844-y.) va Xallod ibn Xolid Shayboniy (vaf. 835-y.) bo‘lib, birinchi roviydan tarqalgan tariqlar soni 53 tani, ikkinchi roviydan tarqalgan tariqlar soni esa 68 tani tashkil qiladi. Demak, Imom Hamzaning qiroati 121 ta tariq orqali yetib kelgan bo‘lib chiqadi[28].

Imom Kisoiyning roviylari Abul Horis Lays b. Xolid (vaf. 854-y.) va Duriy (vaf. 862-y.) bo‘lib, Abul Horisning izdoshlari orqali tarqalgan tariqlar soni 40 ta, Duriyning izdoshlari orqali tarqalgan tariqlar soni esa 24 tani tashqil qilgan. Demak, Imom Kisoiyning qiroati 64 ta tariq orqali yetib kelgan[29].

Kufa qiroat maktabining to‘rtinchi imomi Xalaf bir vaqtning o‘zida Imom Hamzaning roviysi hisoblanadi.

Bag‘dod, Kufa va Basra shaharlaridan keyin ilmiy faoliyat olib boriladigan asosiy markazlardan biri edi. Basra va Kufa kabi ikki muhim maktab rivojlanib, katta bilim fondi shakllanadigan Bag‘dodda sintaksis, arab tili, tafsir, fiqh, hadis va boshqa fan sohalari, ayniqsa, qiroat sohasiga oid maxsus va umumiy tadqiqotlar olib boriladi. Bu yerda yetishib chiqqan qiroat olimlari ma’lum bir hududda yetishib chiqqan biron bir qiroat maktabiga asoslanmagan, balki aralashishning bir qismi sifatida boshqa qiroat maktablarining qiroatlaridan foydalanadi. Ular o‘z ta’limotlarini shu yo‘l bilan olib borganlar va shu mazmunda qiroat asarlarini yozganlar. Og‘zaki an’ana azaldan mavjud bo‘lsa-da, Bag‘dod maktabining qiroat ilmiga qo‘shgan hissasi og‘zaki darajaga qaraganda kitobiyroq bo‘ldi. Bag‘dodlik olimlardan ba’zilari: Abu Ubayd Qosim ibn Sallom (vaf. 838-y.), Ibn Qutayba Dinavariy (vaf. 889-y.), Ibn Abud Dunyo (vaf. 894-y.), Abu Is’hoq Ismoil Jahzamiy (vaf. 896-y.), Abul Hasan Nahviy (vaf. 932-y.), Muso ibn Ubaydulloh Hoqoniy (vaf. 937-y.), Ibn Miksam Abu Bakr Muhammad Attor Bag‘dodiy (vaf. 965-y.), Abu Ali Forisiy (vaf. 987-y.), Abul Hasan Ali Doraqutniy (vaf. 995-y.) kabilarni sanab o‘tish mumkin.

Umuman olganda, garchi «yetti qiroat» va «o‘n qiroat» imomlarining o‘zlari yozgan asarlarini qo‘lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgani ma’lum bo‘lmasa-da, lekin Basra, Kufa va Bag‘dod qiroat maktablariga mansub ulamolarning paydo bo‘lishi natijasida juda ko‘plab asarlar vujudga kelganini ta’kidlash va ularning ayrimlari bizning davrimizgacha yetib kelganini zikr etish o‘rinlidir. Ushbu maktablar tomonidan yaratilgan muhim asarlar sifatida «Kitobul Qiroat» nomi bilan yaratilgan o‘nlab asarlarni misol keltirish mumkin[30].

[24] Ibn al-Jazariy. G‘oyat un-nihoya fi tabaqot al-qurro. 2-jild. – Bayrut: «Dor al-kutub al-ilmiya», 2006. – B. 331.

[25] Ali Muhammad Tavfiq an-Nahhos. Ta’rif bi-l-qurro al-ashara va ruvotihim va usul al-qiroat al-ashar. – Tanta: Dor as-Sahoba li-t-turos, 2004. – B. 12-13.

[26] Recep Koyuncu, Süleyman Kiliç. İbnü’l-Cezerî Öncesi Kıraat Ekollerine Genel Bakış // Kilitbahir. – № 23 (Eylül / September 2023). – Çanakkale (*Türkiye*): «Onsekiz Mart Üniversitesi», 2023. – S. 205.

[27] Abdulfattoh as-Sayyid Ajamiy al-Masafiy. «Hadafat al-qori ila Tajvidi kalom al-Boriy. – Madina: al-Fajril islamiyya, 2001. – B. 36.

[28] Recep Koyuncu, Süleyman Kiliç. İbnü’l-Cezerî Öncesi Kıraat Ekollerine Genel Bakış // Kilitbahir. – № 23 (Eylül / September 2023). – Çanakkale (*Türkiye*): «Onsekiz Mart Üniversitesi», 2023. – S. 206.

[29] Recep Koyuncu, Süleyman Kiliç. İbnü’l-Cezerî Öncesi Kıraat Ekollerine Genel Bakış // Kilitbahir. – № 23 (Eylül / September 2023). – Çanakkale (*Türkiye*): «Onsekiz Mart Üniversitesi», 2023. – S. 206.

[30] Ibn an-Nadim. Al-Fehrist / Tahqiq: Rizo Tajddud. – Tehron: «Asotir», 2003. – B. 38.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Damashqdagi qiroati Ibn Shotibiyga yetib kelgan va ismi unga nisbat berilgan qiroat imomi birgina Abdulloh ibn Omir (vafoti 736-y.) hisoblanadi. Ibn Omir qiroatining roviylari Hishom (vaf. 859) va Ibn Zakvon (vaf. 857-y.). Bu ikki roviy Ibn Omirning qiroatini keyingi avlodga bekami ko‘st yetkazib beruvchilar bo‘lib tarixda qoldi. Ularning izdoshlari ham shunga yarasha bo‘lib, Hishomning tariqlari soni 51 tani, Ibn Zakvonning tariqlari soni esa 79 tani tashkil qiladi. Shunday qilib, Ibn Omir qiroat tariqlari hammasi bo‘lib, 130 nafar qiroat imomlarining nomlaridan iborat[31].

Shomlik qiroat imomlarining qiroatlariga oid o‘nlab asarlar mavjud. Mashhur qiroat olimi Ibn Jazariy ham asli damashqlik bo‘lgani bois, uning bir qancha asarlarini shu yo‘nalishda yozganini ko‘rish mumkin.

Misr fath qilinganidan keyin Abdulloh ibn Amr ibn Os (vaf. 684-85-y.), Uqba ibn Omir (vaf. 678-y.), Abu Zar G‘iforiy (vaf. 653-y.) kabi sahobalar Misrda xalq ta’limi bilan birga Qur’on tilovati ta’limini ham bergan. Ular islomning asoslarini birinchi bo‘lib o‘rgatgan kishilardir. Keyinchalik bu yerda islom ilmlari birlashtirildi, ko‘plab olimlarning kelishi bilan Misr maktabining poydevori qo‘yildi va bu mintaqada Qur’on hamda qiroat ilmi keng tarqaldi.

Misr qiroat maktabining asoschilari sifatida ikki shaxs nomini ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Ulardan birinchisi, Madina imomi Nafi’ning roviysi Varsh laqabli Abu Sa’id Usmon ibn Abdulloh Qibtiy 812) dir. Keyinchalik Misrda Madina maktabining keng tarqalishi va Misr maktabi deb nomlanishiga sababchi bo‘lgan shaxs Varshning izdoshlaridan biri Abu Ya’qub Yusuf ibn Amr ibn Yasor Azraq (vaf. 855-y.) hisoblanadi[32]. Madinadan Misrgacha bo‘lgan va u yerda tizimlashtirilgan maktabga aylangan Misr qiroat maktabiga Azraq asos solgan.

Andalus qiroat maktabiga u 711-yilda fath qilingandan keyin asos solingan. Andalusni zabt etgan qo‘shinlar orasida sahobalar va tobe’inlar ham bor edi. Ular o‘z xalqiga o‘rgatgandek, bu yangi fath qilingan o‘lkalar aholisiga ham Qur’on va diniy ilmlarni o‘rgatgan. Keyinchalik qiroat ilmini rivojlantirish hamda keyingi avlodlarga yetkazishda ishtirok etgan. Andaluslik qiroat olimlarining soni 807 nafarga yetgan[33]. Bu olimlar Hijoz, Damashq, Iroq va Misr kabi joylardan kelganlar. Shu tariqa, vaqt o‘tishi bilan Andalus ham muhim qiroat markaziga aylandi va Makkiy ibn Abu Tolib (vaf. 1045-y.), Abu Amr Doniy (vaf. 1053-y.), Qosim ibn Firruh Shotibiy (vaf. 1194-y.) kabi buyuk qiroat ilmi mualliflari Andalus qiroat maktabining butun islom olamiga yoyilishiga buyuk hissa qo‘shdilar. Uning ta’siri nafaqat o‘rta asrlarda, balki bugungi kunda ham kuzatilib turibdi. Zotan, bu uch nafar olimning asarlarini nazmga solib, Andalus va boshqa islom o‘lkalarida o‘qish imkoniyatini yaratdi. Keyingi davrlarda qiroat ilmi shu uch olim Makkiy ibn Abu Tolib, Doniy va Shotibiy asarlari ustida maxsus tadqiqotlar bilan davom etdi.

Andalus qiroat maktabida qiroat ilmi haqida yozilgan bir qancha muhim asarlar yaratildi. Ular qiroat ilmidagi yetti, o‘n va o‘n to‘rt qiroatning barchasiga bag‘ishlangan, qiroat olimlarining qiroatdagi yo‘llari va uslublariga qaratilgan asarlar hisoblanadi. Imom Shotibiyning asarlari va uning asarlariga bag‘ishlangan hamda ular ta’sirida yaratilgan boshqa bir qancha kitoblar ham islom olamida qiroat ilmining rivojlanishiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yuqorida qayd etilgan qorilar o‘z davrda mashhur bo‘lgani uchun qiroatlar nomlari ularning ismi bilan ataladi. Bular Abu Amr, Ibn Kasir, Ibn Omir, Osim, Hamza, Nofe’ va Kisoiy qiroatlaridir Bu qorilarning barchasi birinchi va ikkinchi hijriy, milodiy yettinchi-sakkizinchi asrlar oralig‘ida yashab o‘tgan. Har bir qorining qiroat yo‘nalishi bo‘yicha shogirdlari ko‘p bo‘lgan ammo har birida ikkitadan shogird qorining nomi alohida qayd etilgan. Qolgan qorilarning qiroat maktablari esa mashhur va shoz hisoblangani uchun yetarli darajada rivojlanmadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdulsamet Şen. Hz. Peygamber’in Kur’an öğretme metodu. Yüksek lisans tezi. – Erzurum (Türkiye): Atatürk Üniversitesi, 2014.
2. Abdulfattoh al-qozi. Tarix al-Mus’haf ash-sharif. – Qohira: Maktaba al-Jandiy, 1951.
3. Abdulfattoh as-Sayyid Ajamiy al-Masafiy. «Hadafat al-qori ila tajvid kalom al-Boriy. – Madina: al-Fajril islamiyya, 2001.
4. Abu Nuaym al-Isfahoniy. Hilyat al-avliyo va tabaqot al-asfiyo. – J. 2. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1988.
5. Ali Muhammad Tavfiq Nahhos. Ta’rif bi-l-qurro al-ashara va ruvotihim va usul al-qiroat al-ashar. – Tanta: Dor as-Sahoba li-t-turos, 2004.
6. Ahmad ibn Sa’d al-Mutayriy. Kitob as-Sab’a li Ibn Mujohid arzan va dirosatan. – Riyoz: Kursiy al-Qur’on al-karim va ulumihi, 2015.

[31] Recep Koyuncu, Süleyman Kiliç. İbnü’l-Cezerî Öncesi Kıraat Ekollerine Genel Bakış // Kilitbahir. – № 23 (Eylül / September 2023). – Çanakkale (*Türkiye*): «Onsekiz Mart Üniversitesi», 2023. – S. 210.

[32] Ibn al-Jazariy. G‘oyat un-nihoya fi tabaqot al-qurro. 2-jild. – Bayrut: «Dor al-kutub al-ilmiya», 2006. – B 349.

[33] Recep Koyuncu, Süleyman Kiliç. İbnü’l-Cezerî Öncesi Kıraat Ekollerine Genel Bakış // Kilitbahir. – № 23 (Eylül / September 2023). – Çanakkale (*Türkiye*): «Onsekiz Mart Üniversitesi», 2023. – S. 213.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

7. Ahmad ibn Hanbal. Musnad al-Imom Ahmad ibn Hanbal. – J. 37. – Bayrut: Muassasa ar-Risola, 2001.
8. Ahmad Muhammad al-Quzot. Ibn Mujohid at-Tamimiy va-l-manhaj at-ta'limiy li-l-qiroat al-qur'oniya // Volume 43, Shari'a and Law Sciences, Supplement 1, 2016. – Urdun: The University of Jordan, 2016.
9. Ibn al-Jazariy. An-Nashr fi qiroat al-'ashr. – J. 1. Tahqiq: Ali Muhammad az-Zabbo'. – Bayrut: Dor al-kutub Ibn al-Jazariy.
10. G'oyat an-nihoya fi tabaqot al-qurro. – J. 2. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2006.
11. Ibn an-Nadim. Al-Fihrist / Tahqiq: Rizo Tajddud. – Tehron: Asotir, 2003.
12. Ibn Mujohid. Kitob as-sab'a fi-l-qiroat / Tahqiq: Shavqiy Zayf. – Qohira: Dor al-Maorif, 1972.
13. Manno' Qatton. Mabohis fi ulum al-Qur'on. – Qohira: Maktaba Vahba, 1980.
14. Mahmud Husariy. Ahsan al-asar fi tarix al-qurro al-arba'ata ashar. – Dubay: Shirat ash-Shamarli, 1965.
15. Muqaddamot fi ilm al-qiroat / Majmua min-al-muallifin. – Ammon: Dor Ammor, 2001.
16. Recep Koyuncu, Süleyman Kiliç. İbnü'l-Cezerî Öncesi Kıraat Ekollerine Genel Bakış // Kilitbahir. – № 23 (Eylül / September 2023). – Çanakkale (Türkiye): Onsekiz Mart Üniversitesi, 2023.
17. Sobir Hasan. An-Nujum az-zohira fi tarojim al-qurro al-arba'a al-ashara va ruvotuhum va turuquhum. – Riyoz: Dor olam al-kutub, 1998.
18. Solih Ahmad ash-Shomiy. Ahl as-suffa ba'idan ani-l-vahm va-l-xayol. – Damashq: Dor al-Qalam, 1991.
19. Toshkentdagi Hazrati Usmon Mus'hafi tarixi / Tuzuvchilar: A.Usmonov, M.G'ulomov. – Toshkent: Movarounnahr, 2016.
20. Xayriddin Zirikliy. Al-A'lom. – J. 3. – Bayrut: Dor al-ilm, 2002.
21. Sha'bon Muhammad Ismoil. al-Ahruf as-sab'a va-l-qiroat va ma yusaru havlaha min shubhatin. – Makkai mukarrama: Saqaf al-adabiy, 2001.

REFERENCES

1. Abdulsamet Şen. Hz. Peygamber'in Kur'an öğretme metodu. Yüksek lisans tezi. – Erzurum (Türkiye): Atatürk Üniversitesi, 2014.
2. Abdulfattoh al-qozi. Tarix al-Mus'haf ash-sharif. – Qohira: Maktaba al-Jandiy, 1951.
3. Abdulfattoh as-Sayyid Ajamiy al-Masafiy. «Hadafat al-qori ila tajvid kalom al-Boriy. – Madina: al-Fajril islamiyya, 2001.
4. Abu Nuaym al-Isfahoniy. Hilyat al-avliyo va tabaqot al-asfiyo. – J. 2. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1988.
5. Ali Muhammad Tavfiq Nahhos. Ta'rif bi-l-qurro al-ashara va ruvotihim va usul al-qiroat al-ashar. – Tanta: Dor as-Sahoba li-t-turos, 2004.
6. Ahmad ibn Sa'd al-Mutayriy. Kitob as-Sab'a li Ibn Mujohid arzan va dirosatan. – Riyoz: Kursiy al-Qur'on al-karim va ulumihi, 2015.
7. Ahmad ibn Hanbal. Musnad al-Imom Ahmad ibn Hanbal. – J. 37. – Bayrut: Muassasa ar-Risola, 2001.
8. Ahmad Muhammad al-Quzot. Ibn Mujohid at-Tamimiy va-l-manhaj at-ta'limiy li-l-qiroat al-qur'oniya // Volume 43, Shari'a and Law Sciences, Supplement 1, 2016. – Urdun: The University of Jordan, 2016.
9. Ibn al-Jazariy. An-Nashr fi qiroat al-'ashr. – J. 1. Tahqiq: Ali Muhammad az-Zabbo'. – Bayrut: Dor al-kutub Ibn al-Jazariy.
10. G'oyat an-nihoya fi tabaqot al-qurro. – J. 2. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2006.
11. Ibn an-Nadim. Al-Fihrist / Tahqiq: Rizo Tajddud. – Tehron: Asotir, 2003.
12. Ibn Mujohid. Kitob as-sab'a fi-l-qiroat / Tahqiq: Shavqiy Zayf. – Qohira: Dor al-Maorif, 1972.
13. Manno' Qatton. Mabohis fi ulum al-Qur'on. – Qohira: Maktaba Vahba, 1980.
14. Mahmud Husariy. Ahsan al-asar fi tarix al-qurro al-arba'ata ashar. – Dubay: Shirat ash-Shamarli, 1965.
15. Muqaddamot fi ilm al-qiroat / Majmua min-al-muallifin. – Ammon: Dor Ammor, 2001.
16. Recep Koyuncu, Süleyman Kiliç. İbnü'l-Cezerî Öncesi Kıraat Ekollerine Genel Bakış // Kilitbahir. – № 23 (Eylül / September 2023). – Çanakkale (Türkiye): Onsekiz Mart Üniversitesi, 2023.
17. Sobir Hasan. An-Nujum az-zohira fi tarojim al-qurro al-arba'a al-ashara va ruvotuhum va turuquhum. – Riyoz: Dor olam al-kutub, 1998.
18. Solih Ahmad ash-Shomiy. Ahl as-suffa ba'idan ani-l-vahm va-l-xayol. – Damashq: Dor al-Qalam, 1991.
19. Toshkentdagi Hazrati Usmon Mus'hafi tarixi / Tuzuvchilar: A.Usmonov, M.G'ulomov. – Toshkent: Movarounnahr, 2016.
20. Xayriddin Zirikliy. Al-A'lom. – J. 3. – Bayrut: Dor al-ilm, 2002.
21. Sha'bon Muhammad Ismoil. al-Ahruf as-sab'a va-l-qiroat va ma yusaru havlaha min shubhatin. – Makkai mukarrama: Saqaf al-adabiy, 2001.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 12.10.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^{1}/_{8}$.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

«Standard Poligraf Service»
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.